

**“Navoiyuran” Davlat korxonasining
Atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim barqarorligi sohasidagi
siyosati**

1. UMUMIY QOIDALAR

“Navoiyuran” davlat korxonasi (keyingi o‘rinlarda – “Navoiyuran” DK, Korxona) uran mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisi sifatida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqlim barqarorligini ta’minlash va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish bo‘yicha o‘ziga xos mas’uliyatni anglaydi. Bu majburiyat ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarini – geologiya-qidiruv ishlari va uran konlarini qazib olishdan tortib, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish maydonlarini rekultivatsiya qilishgacha qamrab oladi.

Ushbu Siyosat “Navoiyuran” DKning atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim xavflarini boshqarish va radiatsiya xavfsizligi sohalaridagi yagona tamoyillari va majburiyatlarini belgilaydi.

Siyosatning amal qilishi Korxonaning barcha tuzilmaviy bo‘linmalariga tadbqiq etiladi, jumladan:

Uran ishlab chiqarish zavodi;

Zafarobod, Nurobod, Uchquduq ishlab chiqarish maydonlari;

Uran va noyob metallar geologiyasi bo‘yicha ilmiy-ishlab chiqarish markazi (Zafarobod, Nurobod, Uchquduq, Toshkent).

2. STRATEGIK MAQSADLAR

Strategik maqsad: Uran qazib olish sohasida ekologik xavfsizlik, iqlim barqarorligi va barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq biznes jarayonlarini amalga oshirish bo‘yicha yetakchilikka erishish, xodimlar, aholining salomatligi va atrof-muhitni ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq salbiy ta’sirlardan ishonchli himoya qilish hamda past uglerodli kelajakni shakllantirishga faol hissa qo‘shish.

Asosiy vazifalar:

• **Normativ talablarning bajarilishi:** O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro konvensiyalar, standartlar va eng yaxshi mavjud amaliyotlar talablariga so‘zsiz rioya etish.

• **Iqlim o‘zgarishiga moslashuv choralarining samarali joriy etilishi:** Iqlim o‘zgarishiga moslashuv bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini joriy etish, moslashuv va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

• **Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish:** Zararli moddalarning atmosferaga chiqarilishi, oqava suvlarning tashlanishi va chiqindilar (shu jumladan, issiqxona gazlari) hosil bo‘lishini bosqichma-bosqich kamaytirish.

• **Resurslardan samarali foydalanish:** Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, suv, energiya va moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish.

• **Eng yaxshi mavjud texnologiyalarni joriy etish:** Zamonaviy, resurs tejovchi va ekologik xavfsiz texnologiya va uskunalarni izlash, baholash va bosqichma-bosqich joriy etish.

• **Xavflarni boshqarish:** Loyihalarning hayotiy siklining barcha bosqichlarida ekologik, radiatsion va iqlim xavflarini tizimli aniqlash, baholash va boshqarish, shu jumladan fizik va o‘tish davri xavflarini baholash.

• **Iqlim, ekologik va radiatsion xavflarni boshqarish hamda iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini joriy etish:** Iqlim, ekologiya va radiatsiya bilan bog'liq xavflarni tizimli aniqlash, baholash va boshqarish, iqlimning fizik va o'tish davri xavflarini tahlil qilish, moslashuv va yumshatish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

• **Biologik xilma-xillikni saqlash:** Korxona faoliyati ta'siriga uchragan hududlarda biologik xilma-xillikni saqlash va tiklash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

• **Favqulodda vaziyatlarga tayyorlik:** Favqulodda vaziyatlar va hodisalarning oqibatlariga tezkor javob berish va ularni lokalizatsiya qilish bo'yicha yuqori darajadagi tayyorgarlikni ta'minlash.

• **Oshkoralik va shaffoflik:** Faoliyatning shaffofligini ta'minlash, manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv muloqot yuritish va ekologik ko'rsatkichlar, iqlim tashabbuslari bo'yicha muntazam ochiq axborot berib borish.

• **Xodimlarni rivojlantirish:** Doimiy o'qitish va xabardorlikni oshirish orqali barcha xodimlar va pudrat tashkilotlari o'rtasida yuqori ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirish.

3. QO'LLANILISH SOHASI

Mazkur Siyosatning qoidalari "Navoiyuran" davlat korxonasi barcha xodimlari, shu jumladan barcha darajadagi rahbarlar, tarkibiy bo'linmalar xodimlari, shuningdek pudrat tashkilotlari va hamkorlarning vakillari tomonidan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki Korxona ob'ektlarida yoki Korxona manfaatlarida har qanday faoliyatni amalga oshirish jarayonida majburiy ravishda bajarilishi shart.

Siyosat korxonaning barcha biznes jarayonlari, ishlab chiqarish operatsiyalari, ma'muriy faoliyati hamda loyihalarning hayotiy siklining barcha bosqichlariga — loyihalash, qurilish, ekspluatatsiya va ob'ektlarni tugatish jarayonlarigacha — istisnosiz tatbiq etiladi.

4. NORMATIV-HUQUQIY ASOS

Korxona o'z faoliyatida quyidagi hujjatlarda belgilangan tamoyillarga amal qiladi:

4.1. Milliy qonunchilik:

- O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi 353-I-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi "Issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi "Chiqindilar to'g'risida"gi 362-II-son Qonuni (05.04.2002);

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi 14-son qarori “Ekologik me‘yorlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to‘g‘risida”;
- Atmosfera havosi sifati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi sanitariya me‘yorlari va qoidalari: SanPiN №0293-11, № 0294-11 va № 0350-17;
- O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo‘ljallangan atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi (PF-5863, 30.10.2019);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni “Ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrda PF-217-son Farmoni “Ekologiya va turizm sohalarida aholining talablariga tezkor javob berish tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

4.2. Xalqaro konvensiyalar va bitimlar:

- Radiatsion xavfsizlik, radioaktiv chiqindilar bilan ishlash va jismoniy xavfsizlik bo‘yicha MAGATening umumqabul qilingan me‘yorlari va standartlari;
- Ishlatilgan yadro yoqilg‘isi bilan muomala qilish xavfsizligi va radioaktiv chiqindilar bilan muomala qilish xavfsizligi to‘g‘risidagi Qo‘shma konvensiya;
- Parij iqlim kelishuvi;
- Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya (CBD);
- Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo‘q qilish ustidan nazorat to‘g‘risidagi Bazel konvensiyasi;
- Simob bo‘yicha Minamata konvensiyasi.

4.3. Xalqaro standartlar va qo‘llanmalar:

- ISO 14001:2015 “Atrof-muhit menejmenti tizimlari. Talablar va qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar”;
- ISO 50001:2018 “Energiya menejmenti tizimlari. Talablar va qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar”;
- ISO 14064 “Issiqxona gazlari”;
- Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB/EBRD) faoliyat standartlari;
- BMT Global Shartnomasi (UNGC) tamoyillari;
- Iqlim bilan bog‘liq moliyaviy ma‘lumotlarni oshkor qilish bo‘yicha Ishchi guruh (TCFD) tavsiyalari;
- IPCC (Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi);
- ISSB (Xalqaro barqarorlik standartlari kengashi);
- IFRS S1 va IFRS S2 standartlari.

5. ASOSIY MASALALAR

Qonunchilik va xalqaro normalarga rioya etish: Korxona amaldagi ekologik qonunchilik hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tegishli xalqaro bitim va standartlarga rioya etilishini ta'minlaydi.

Ifloslanishning oldini olish va salbiy ta'sirni kamaytirish: Atmosfera havosi, suv resurslari, tuproq qatlami ifloslanishining oldini olish va biologik xilmaxillikni saqlashga qaratilgan profilaktik choralar va texnologiyalarni joriy etish.

Xavflarni aniqlash va boshqarish: Ekologik me'yorlarga rioya etilishini muntazam tekshirish, mumkin bo'lgan hodisalarning sabablarini aniqlash va bartaraf etish orqali amalga oshiriladi.

Mas'uliyat: Ishlab chiqarishning ekologik me'yorlariga rioya etilishini ta'minlashda barcha darajadagi rahbariyatning faol ishtiroki.

Jarayonlarga integratsiya: Ekologik xavfsizlik har bir biznes jarayonining ajralmas qismidir; ekologik omillarni boshqarish rejalashtirishning barcha bosqichlarida va ishlab chiqarish sikli davomida amalga oshiriladi.

Tahlil va takomillashtirish: Ekologik menejment tizimini muntazam monitoring, audit va tuzatish tadbirlari orqali doimiy ravishda takomillashtirib borish.

Shaffoflikni ta'minlash va manfaatdor tomonlarni xabardor qilish: Jamoatchilik, davlat organlari, hamkorlar va xodimlar bilan atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ochiq muloqotni qo'llab-quvvatlash, shuningdek tegishli ekologik ma'lumotlarni ichki tartibda muntazam taqdim etib borish.

Xodimlarning ekologik madaniyati va malakasini oshirish: Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bilim va xabardorlikni oshirish orqali xodimlarda tabiatni muhofaza qilishga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish.

Korxona faoliyati amalga oshiriladigan hududlarning barqaror ekologik rivojlanishiga ko'maklashish: Loyihalarning hayotiy siklining barcha bosqichlarida faoliyat yuritilayotgan hududlar va jamoalarning ijtimoiy-ekologik manfaatlarini hisobga olish orqali iqtisodiy rivojlanish va tabiiy resurslarni saqlash o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash.

6. FAOLIYATNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Korxona o'zining asosiy tamoyillari va qadriyatlarini bevosita operatsion faoliyatiga integratsiya qiladi. Bu quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha aniq strategik vazifalarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi:

6.1. Atmosfera havosini muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlarini boshqarish

Ifloslantiruvchi moddalar va issiqxona gazlari chiqindilarini muntazam inventarizatsiya qilish.

Uglerod izini qisqartirish va uglerod neytralligi maqsadlariga erishishni o'z ichiga olgan chiqindilarni kamaytirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Chiqindilarni avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimlarini va atmosfera havosi sifatini monitoring qilish tizimlarini joriy etish.

Obyektlarning iqlim o'zgarishlariga nisbatan zaifligini baholash va moslashuv rejalarini ishlab chiqish.

6.2. Suv resurslarini muhofaza qilish va oqilona foydalanish

Aylanma va yopiq suv ta'minoti tizimlarini joriy etish va rivojlantirish.

Chuchuk suvni olish va oqava suvlarni (shu jumladan ishlab chiqarish oqavalarini) tashlash ustidan qat'iy nazoratni amalga oshirish.

Suvni tejash texnologiyalari va suv iste'molini kamaytirish (minimallashtirish) bo'yicha tadbirlarni joriy etish.

Yer usti va yer osti suvlarining (suv ob'ektlarining) sifatini muntazam monitoring qilish.

6.3. Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari, jumladan radioaktiv chiqindilar bilan muomala qilish

Chiqindilarni inventarizatsiya qilish va ularni tasniflash tizimini joriy etish (amalga oshirish).

Chiqindilar hosil bo'lishining oldini olish, ularni qayta ishlatish, qayta ishlash va retsiklingni birinchi darajali ustuvor yo'nalish sifatida ta'minlash.

Xavfli va radioaktiv chiqindilarni, milliy talablarga hamda MAGATE standartlariga muvofiq, xavfsiz vaqtinchalik saqlash, tashish va yakuniy utilizatsiya (ko'mish) qilish.

Chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish (minimallashtirish) bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

6.4. Radiatsion xavfsizlik va himoya

Ish joylarida, ishlab chiqarish maydonlarida (prommaydon), sanitariya-himoya zonasida va kuzatuv zonasida tizimli radiatsion nazoratni ta'minlash.

Xodimlarning individual dozimetrik nazoratini o'tkazish.

Radiatsion xavfsizlik normalari va talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash

Yadro materiallari, radioaktiv moddalar va ularni qo'llash ob'ektlarining jismoniy himoyasini ta'minlash.

6.5. Yer resurslaridan foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va rekultivatsiya

Maqsad: Biologik xilma-xillikka nisbatan "sof salbiy ta'sirning yo'qligi" tamoyiliga (ya'ni "nol balans" prinsipiga) erishish.

Korxona ta'sirni yumshatish choralarining iyerarxiyasiga amal qiladi:

Chora	Tavsifi va amalga oshirilishi
Oldini olish (Chetlab o'tish)	Biologik xilma-xillikka ta'sirni baholash (BXB)ni dastlabki bosqichlarda o'tkazish orqali muhim yashash muhitlari va Qizil kitobga kiritilgan turlarni aniqlash. Ustuvor yo'nalish – loyihaviy yechimlarni o'zgartirish yoki hududlardan voz kechish.

Minimallashtirish	Flora va faunaga qoluvchi salbiy ta'sirni maksimal darajada kamaytirish bo'yicha choralarni ishlab chiqish va joriy etish (mavsumiy ish cheklovlari, eng yaxshi mavjud texnologiyalarni qo'llash).
Tiklash va Kompensatsiya	Buzilgan yerlarni bosqichma-bosqich, to'liq texnik va biologik rekultivatsiya qilish. Agar "nol balans"ga erishilmasa, eng so'nggi chora sifatida kompensatsion tadbirlar qo'llaniladi.

Nazorat va ekspertiza:

- **Monitoring:** Ikki darajada amalga oshiriladi: operatsion monitoring va status monitoring. Monitoring O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni (28-modda) talablariga muvofiq olib boriladi.
- **Ekspertizani jalb qilish:** Eng murakkab va mehnat talab qiluvchi bosqichlar (BXTB, inventarizatsiya, BXB boshqaruv rejalarini ishlab chiqish) tashqi ilmiy va ekspert tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida bajariladi. Atrof muhitni muhofaza qilish bo'limi ishlarning sifatini nazorat qiladi va ma'lumotlarni tizimlashtiradi.
- **Moliyaviy majburiyatlar:** "Navoiyuran" DK rahbariyati rekultivatsiya va obyektlarni tugatish (likvidatsiya) bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli moliyaviy kafolatlarni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- Loyihalarning barcha bosqichlarida biologik xilma-xillikka ta'sirni baholashni o'tkazish.
- Biologik xilma-xillikni boshqarish rejalarini va buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- Yer osti eritib olish (YEOE) konlari bo'yicha ishlatilgan maydonlarni tizimli rekultivatsiya qilish.
- Tabiatni muhofaza qilish va o'rmonlarni tiklash dasturlarida ishtirok etish.

6.6. Energiya samaradorligi va energiya iste'molini boshqarish:

- Energo auditlarni o'tkazish va energetik menejment tizimlarini joriy etish.
- Energiya samaradorligini oshirish va energiya tejash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini bosqichma-bosqich joriy etish va ulardan foydalanishni kengaytirish.

7 Vazifalar

7.1. Ekologik boshqaruv va xodimlar sohasidagi vazifalar

№	Vazifalar
1.	Xodimlarni ekologik kompetensiyasini hisobga olgan holda professional tanlab olish.
2.	Xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish hamda ekologik madaniyat va mas'uliyatli xulq-atvorni targ'ib qilish.
3.	Ekologik, radiatsion va iqlim xavflarini tizimli ravishda aniqlash, baholash va boshqarish.
4.	Atrof-muhitga ta'sirni ishlab chiqarish ekologik nazorati va monitoringini tashkil etish va amalga oshirish.
5.	Xodimlarning ekologik va sanitariya xavfsizligi bo'yicha ijtimoiy himoyasini ta'minlash.
6.	Pudrat va subpudrat tashkilotlari xodimlari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish talablari bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish.

7.2. Ta'sirlarni oldini olish va nazorat qilish sohasidagi vazifalar

№	Vazifalar
1.	Barcha ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanishda ekologik ruxsatnomalar va me'yoriy talablarga rioya etilishini ta'minlash.
2.	Loyiha hujjatlarining qonunchilik talablari va ETT (eng yaxshi mavjud texnologiyalar)ga muvofiqligini loyihalash bosqichida nazorat qilish.
3.	Atrof-muhit ifloslanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish jihozlari va texnologik jarayonlarning xavfsizligini ta'minlash.

4.	Chiqindilar hosil bo'lish hajmini, havoga chiqarilmalarni va suvga tashlamalarni bosqichma-bosqich kamaytirish, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.
5.	Ekologik holatlar va avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish bo'yicha harakatlar tayyorgarligini ta'minlash.
6.	Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va dasturlarini (shu jumladan rekultivatsiya va bioxilma-xillikni saqlash) ishlab chiqish va amalga oshirish.

8. "NAVOIYURAN" DK MAJBURIYATLARI

"Navoiyuran" DK rahbariyati quyidagi majburiyatlarni rasman o'z zimmasiga oladi va ularning so'zsiz bajarilishini ta'minlaydi:

1. **Qonunchilikka rioya qilish:** O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va normativ talablariga, shuningdek, Korxona tomonidan qabul qilingan xalqaro ixtiyoriy majburiyatlarga to'liq va so'zsiz rioya etishni ta'minlash.

2. **Oldini olishga ustuvorlik berish:** Atrof-muhitni ifloslanishidan himoya qilish, radiatsion va ekologik xavflarni kamaytirish tamoyillariga amal qilgan holda, tuzatish choralaridan ko'ra oldini olish choralari ustuvorlik berish.

3. **Doimiy takomillashtirish:** Korxonaning ekologik menejment tizimini, shu jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyat ko'rsatkichlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish hamda ichki va tashqi auditlarni muntazam ravishda o'tkazish.

4. **Resurslar va Kompetensiyalar:** Ushbu Siyosatni samarali amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, insoniy va moddiy resurslar bilan ta'minlash, shuningdek, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyasining zarur darajasini kafolatlash.

5. **Bioxilma-xillikni saqlash:** Tashkilot faoliyati hududlarida bioxilma-xillikka nisbatan "hech qanday sof salbiy ta'sirsizlik" tamoyiliga erishish maqsadida ta'sirni kamaytirish chora-tadbirlari ierarxiyasini joriy etishni ta'minlaydi.

6. **Resurs samaradorligi:** Tabiiy resurslardan (suv, energiya, yer resurslari) oqilona foydalanishni ta'minlash hamda aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etib borish.

7. **Ochilik va muloqot:** Korxona faoliyatining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarning oshkoraligini va ochiqligini ta'minlash, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv muloqotni qo'llab-quvvatlash.

8. **Moliyaviy majburiyatlar:** Rekultivatsiya va ob'ektlarni tugatish bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli moliyaviy kafolatlarni ta'minlash, shu orqali uzoq muddatli ekologik xavfsizlikka erishish.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Nazorat va mas'uliyat

- **Nazorat:** Ushbu Siyosat talablarining bajarilishi ustidan nazorat qilish mas'uliyati Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi (AMMQB) zimmasiga yuklanadi, umumiy rahbarlik esa "Navoiyuran" DK Bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi.

- **Monitoring:** Atrof-muhitga ta'sirning monitoringi, shu jumladan bioxilma-xillik bo'yicha "nollik salbiy ta'sir"ga (nol balans) erishish bo'yicha nazorat ikki darajada olib boriladi:

- **Operatsion nazorat:** Ichki nazorat, ekologik me'yorlarni bajarilishini va avtomatlashtirilgan uzluksiz monitoring tizimlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

- **Status nazorati:** Maxsus litsenziyaga ega tashqi ilmiy tashkilotlar tomonidan shartnoma asosida o'tkaziladigan davriy bazaviy va mavsumiy tadqiqotlar.

- **Pudratchi tashkilotlar va hamkorlar:**

- "Navoiyuran" DK ob'ektlarida ishlarni amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida mazkur Siyosatning talablari hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va xavfsizlikka oid ichki hujjatlarga rioya etishlari shart.

- Pudratchi tashkilotlar tomonidan talablarning bajarilishi uchun mas'uliyat ularni jalb qilgan "Navoiyuran" DKning tegishli tuzilma bo'linmalari rahbarlariga yuklanadi.

Mazkur siyosatning ijrosi ustidan nazorat va mas'uliyat

- Ushbu siyosat "Navoiyuran" DKning barcha xodimlariga yetkazilishi shart.

- Nazorat mehnat muhofazasi talablariga rioya etilishini tekshirish, shuningdek darajaviy nazorat tizimi organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar orqali amalga oshiriladi.

- Har bir xodim ushbu siyosat talablariga o'z vakolati doirasida rioya etishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

- Intizomiy jazolarni qo'llash. O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

9.2. Qayta ko'rib chiqish tartibi va saqlanishi

- **Amal qilish muddati:** Ushbu Siyosat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, ishlab chiqarish texnologiyalarida yoki Korxonaning tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar yuz berganda yoki kamida besh yilda bir marotaba qayta ko'rib chiqiladi.

- **Tasdiqlash:** Siyosatga kiritiladigan barcha o'zgartishlar va uning yangi tahriri "Navoiyuran" DK Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Saqlanishi

- Elektron nusxa (DOC formati): Texnik siyosat bo'limi boshlig'i va Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'ining shaxsiy kompyuterlarida saqlanadi.
- Qog'oz shakli (original): Texnik siyosat bo'limida saqlanadi.
- Tarqatma: Hujjatning chop etish va tahrir qilishdan himoyalangan PDF-nusxasi orqali tegishli bo'limlarga tarqatiladi.

YAKUNIY QOIDALAR

Ushbu Siyosat korxona Bosh direktori tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

Agar ushbu Siyosatning ayrim bandlari qandaydir sabablarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida Korxona uchun majburiy bo'lgan talablar (imperativ normalar) bilan ziddiyatga kirsas, bunday bandlar o'z huquqiy kuchini yo'qotadi va ushbu Siyosatga tegishli o'zgartishlar kiritilgunga qadar amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalariga amal qilinadi.

Tarqatma ro'yxati:

Hujjat quyidagilarga yuboriladi:

1. **"Navoiyuran" DK rahbariyati**
2. **"Navoiyuran" DK ijro apparatining barcha departamentlari, bo'lim va xizmatlari**
3. **"Navoiyuran" DKning barcha tarkibiy bo'linmalari**
4. **"Navoiyuran" DK tarkibiy bo'linmalariga bo'ysunuvchi bo'limlar, xizmatlar, sexlar va uchastkalar**

O'zgarishlarni ro'yxatga olish varag'i

[illegible]